



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 95-100 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUDIIY RIVOJLANISH NOMUTANOSIBLIGI: IQTISODIY OMILAR TAHLILI VA MUTANOSIB RIVOJLANISHNI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI



Karimova Shirin Zoxid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası i.f.f.d., dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy rivojlanish nomutanosibligining asosiy iqtisodiy, geografik, tarixiy va institutsional sabablari tahlil qilinadi hamda mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ko'rib chiqiladi. O'zbekiston 14 ta ma'muriy hududi misolida nomutanosiblikning namoyon bo'lishi va uning asosiy omillari ochib beriladi. Xalqaro tajriba YI Koheziya siyosati, Xitoy g'arbiy mintaqalar dasturi, Janubiy Koreya hududiy tenglashtirish siyosati tahlil qilinib, O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi

Kalit so'zlar: hududiy nomutanosiblik, mintaqaviy tengsizlik, iqtisodiy sabablar, agglomeratsiya, inson kapitali, investitsiyalar, Koheziya siyosati, mintaqaviy siyosat, O'zbekiston viloyatlari, hududiy mutanosiblik.

Аннотация. В статье анализируются основные экономические, географические, исторические и институциональные причины дисбаланса территориального развития и рассматривается система мер, направленных на обеспечение пропорциональности. Проявления дисбаланса и его основные факторы раскрываются на примере 14 административных районов Узбекистана. Анализируется международный опыт политики сплочения ЕС, китайской программы развития западных регионов и южнокорейской политики территориального выравнивания, а также разрабатываются практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: территориальный дисбаланс, региональное неравенство, экономические причины, агломерация, человеческий капитал, инвестиции, политика сплочения, региональная политика, регионы Узбекистана, территориальная пропорциональность.

Abstract. This article analyzes the main economic, geographical, historical and institutional reasons for the imbalance of territorial development and considers a system of measures aimed at ensuring proportionality. The manifestation of the imbalance and its main factors are revealed on the example of 14 administrative regions of Uzbekistan. International experience of the EU Cohesion Policy, the Chinese Western Regions Program, and the South Korean territorial equalization policy are analyzed and practical recommendations for Uzbekistan are developed.

Keywords: territorial imbalance, regional inequality, economic reasons, agglomeration, human capital, investments, Cohesion Policy, regional policy, regions of Uzbekistan, territorial proportionality.

Kirish

Hududiy rivojlanish nomutanosibligi muammosi ya'ni bir mamlakatning turli viloyatlari yoki mintaqalari o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasida sezilarli farqlarning mavjudligi bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu farqlar faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralanib qolmay, daromad darajasi, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyati, infratuzilma rivojlanganligi va umuman hayot sifatini qamrab oladi.

O'zbekiston ham bu muammodan chetda emas. Mamlakat poytaxti Toshkent shahri va qolgan viloyatlar, jumladan janubiy Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, Toshkent zamonaviy ofis binolari, xalqaro kompaniyalar va yuqori ish haqli ish o'rinlari bilan mamlakatning iqtisodiy markazi, boshqa tomondan, ba'zi viloyatlarda aholi asosan qishloq xo'jaligida band bo'lib, daromad darajasi sezilarli past.

Ushbu maqolaning maqsadi nomutanosiblikning asosiy sabablarini aniq va tushunarli tarzda ochib berish, xalqaro tajribadan saboq olish va O'zbekiston uchun amaliy chora-tadbirlar taklif etishdan iborat. Maqola murakkab matematik formulalarga asoslanmay, iqtisodiy mantiq va real misollar orqali muammoni tushuntiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Hududiy nomutanosiblik muammosi iqtisodiyot fanida uzoq tarixga ega. Shved iqtisodchisi G.Myrdal o'zining "Iqtisodiy nazariya va kam rivojlangan mintaqalar" asarida bu muammoni birinchi bo'lib tizimli tarzda tahlil qildi. U "kumulativ sababiyat" deb ataluvchi hodisani aniqladi. Boy hududlar o'zlarining boyligidan foydalanib yanada ko'proq kapital, inson resurslari va texnologiyalarni jalb qiladi, kambag'al hududlar esa aksincha ularni yo'qotib boradi. Bu jarayon o'z-o'zini kuchaytiradi va vaqt o'tishi bilan hududlar o'rtasidagi farq tobora chuqurlashadi [1].

Nobel mukofoti sohibi P.Krugman "Yangi iqtisodiy geografiya" nazariyasida sanoat va xizmatlar korxonalarining nima sababdan aynan ba'zi shaharlarda to'planishini matematik aniqlik bilan tushuntirdi. Uning asosiy xulosasi oddiy ya'ni ishchilar va kompaniyalar bir-birining yaqinida joylashishdan manfaatdor, chunki bu xarajatlarni kamaytiradi va imkoniyatlarni kengaytiradi. Shu sababli iqtisodiy faoliyat ma'lum markazlarda to'planadi [2].

Amerikalik iqtisodchi A.Hirschman rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim xulosaga keldi. U hududiy nomutanosiblikni kamaytirish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi va davlat faol aralashuviz bozor kuchlari odatda nomutanosiblikni kuchaytirish tomonga ishlaydi degan xulosani taqdim qildi [3].

Metodologiya

Tadqiqot jarayoni maqsadlarini amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash kabi usullaridan foydalanildi. Ma'muriy hududlarning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha empirik tahlil qilindi.

Tahlil

Hududiy nomutanosiblikning birinchi va eng kuchli sababi investitsiyalar va kapitalning hududlar o'rtasida notekis taqsimlanishidir. Istalgan investor xorijiy yoki

mahalliy sarmoya kiritishda yirik bozorga yaqinlik, transport va logistika qulayligi, malakali ish kuchining mavjudligi va infratuzilma sifati kabi asosiy omillarni hisobga oladi. Bu mezonlar bo'yicha poytaxt va yirik shaharlar har doim viloyat markazlari va qishloq hududlaridan ustun turadi.



1-rasm: Respublikaning qaysi hududlarida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni [4]

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni tahlili ularning respublika bo'yicha notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda jami 14 871 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Mazkur ko'rsatkichning eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, bu yerda 9 676 ta korxona faoliyat olib bormoqda. Ushbu holat poytaxtda infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsiya muhiti qulayligi hamda iqtisodiy faollikning yuqoriligi bilan izohlanadi. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati hamda Samarqand viloyati qayd etilgan bo'lib, ushbu hududlarda ham investitsiya jalb qilish imkoniyatlari nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi.

Shu bilan birga, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida ham xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni o'rtacha darajada shakllangan. Boshqa hududlarda, xususan, Xorazm Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida mazkur ko'rsatkichning pastligi kuzatiladi. Bu esa ushbu hududlarda investitsiya jozibadorligining nisbatan pastligi, infratuzilma rivojlanish darajasi hamda iqtisodiy faollikning cheklanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlarga ega bo'lib, bu holat hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi nomutanosiblikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Ikkinchi muhim sabab yuqori malakali mutaxassislar, tadbirkorlar va yoshlarning rivojlangan hududlarga ko'chib ketishi hodisasi. Bu jarayon inson kapitalining markazlashuvi" deb ataladi. Uning mexanizmi oddiy rivojlangan hududlarda ish haqi yuqori, imkoniyatlar ko'p va hayot sifati yaxshiroq. Shu sababli malakali mutaxassislar

aynan o'sha hududlarga intiladi. Bu esa nisbatan rivojlanishi sust hududlarni eng zarur inson resurslaridan mahrum qiladi.

Uchinchi sabab hududlar o'rtasidagi infratuzilma sifatidagi farq. Transport yo'llari, internet ulanishi, elektr ta'minoti sifati va logistika imkoniyatlari hududning iqtisodiy faolligiga bevosita ta'sir qiladi. Yaxshi yo'llarga ega bo'lgan hudud bozorga tez va arzon yetib boradi, internet orqali dunyo bilan bog'langan hudud raqamli iqtisodiyotdan foydalana oladi.

1-Jadval

Avtomobil transportida yuklarni tashish [5]

Hududlar	2020	2021	2022	2023
Andijon viloyati	42.6 %	44.0 %	49.3 %	50.9 %
Buxoro viloyati	65.7 %	64.2 %	67.7 %	68.2 %
Farg'ona viloyati	59.3 %	56.9 %	61.6 %	63.7 %
Jizzax viloyati	35.6 %	34.2 %	36.5 %	35.9 %
Namangan viloyati	26.7 %	29.7 %	31.6 %	33.2 %
Navoiy viloyati	340.6 %	320.9 %	379.9 %	382.9 %
Qashqadaryo viloyati	44.5 %	42.3 %	45.9 %	48.8 %
Qoraqalpog'iston r	32.4 %	33.3 %	36.7 %	38.3 %
Samarqand viloyati	53.5 %	55.2 %	57.3 %	60.1 %
Sirdaryo viloyati	19.2 %	18.9 %	19.5 %	20.1 %
Surxandaryo viloyati	72.2 %	68.3 %	71.7 %	82.7 %
Toshkent shahri	180.9 %	182.8 %	136.4 %	261.7 %
Toshkent viloyati	228.5 %	295.5 %	253.2 %	261.7 %
Xorazm viloyati	36.6 %	35.8 %	37.8 %	38.9 %

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston hududlarida avtomobil transportida yuklarni tashish ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. 2023 yil holatiga ko'ra, Navoiy viloyati 382.9 % va Toshkent viloyati 261.7 % boshqa hududlardan mutlaq ustunlikni saqlab qolmoqda. Bu holat bevosita ushbu viloyatlardagi yirik sanoat korxonalari va transport tugunlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Sirdaryo va Namangan viloyatlari esa eng past ko'rsatkichlarni namoyon etib, hududiy transport infratuzilmasining rivojlanishdagi nomutanosibligini yaqqol ifodalaydi. Shunday bo'lsa-da, barcha hududlarda 2020-2023 yillar davomida umumiy o'sish tendentsiyasi kuzatilishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan transport va logistika islohotlarining ijobiy natijasi sifatida baholashimiz mumkin.

To'rtinchi sabab tarixiy meros va geografik jihat. O'zbekistonda sovet davrida sanoat asosan shimoliy hududlarda Toshkent, Chirchiq, Andijon, Farg'ona joylashtirilgan. Janubiy hududlar esa qishloq xo'jaligi g'o'za yetishtirish uchun ixtisoslashtirilgan. Bu tuzilma mustaqillikdan keyin ham o'zgarishsiz saqlanib, zamonaviy iqtisodiy nomutanosiblikning asosini tashkil etmoqda.

Geografik jihatdan ham farqlar mavjud ya'ni tog'li va cho'l hududlar tekislik hududlarga nisbatan qishloq xo'jaligida, sanoatda va infratuzilma qurishda qimmatroq va

qiyinroq. Bu geografik to'siqlar hududiy nomutanosiblikning doimiy manbaiga aylanib qolgan.

Beshinchi sabab mahalliy boshqaruv sifati va institutsional muhit. Toshkent shahrida xorijiy kompaniyalar bilan muloqot, ruxsatnomalar olish va biznes yuritish ancha qulay. Ba'zi viloyatlarda esa byurokratik to'siqlar, korrupsiya va ma'muriy qoloqlik investitsion muhitni yomonlashtiradi. D.Nort isbotlaganidek, institutlar sifati iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biridir [6].

O'zbekistonda hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun birinchi va eng muhim chora maqsadli investitsiya siyosatini joriy etish. Buning uchun "rivojlanishi past hududlar" kontseptsiyasini rasmiy ravishda tan olish va ushbu hududlar uchun maxsus imtiyozlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Yevropa Ittifoqi Koheziya siyosatidan ilhomlangan holda, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasini "rivojlanish zonolari" deb e'lon qilish va bu hududlardagi yangi korxonalarga 7-10 yillik to'liq soliq ta'tilini berish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ushbu hududlardagi infratuzilma loyihalari uchun milliy byudjetdan afzallik asosida mablag' ajratish lozim.

Inson kapitalining ko'chish hodisasi muammosini hal etish uchun ikki yo'nalishda harakat qilish kerak. Birinchi yo'nalish sifatli ta'limni "rivojlanish zonolari"da ham ta'minlash. Bu ushbu viloyatlardagi universitetlar va kasb-hunar kollejlarini zamonaviy bino va uskunalar bilan ta'minlash, xorijiy va respublika miqyosidagi top o'qituvchilarni bu hududlarga jalb qilish uchun ish haqiga qo'shimcha ustama to'lash. Ikkinchi yo'nalish mahalliy ish o'rinlari yaratish "rivojlanish zonolari"da ishlaydigan muhandis va texnik mutaxassislariga ham oylik ish haqiga 20-30 foiz "hududiy ustama" to'lash, shuningdek, bu hududlarda 5 yildan ortiq ishlagan yosh mutaxassislariga arzon ipoteka krediti berishni joriy etish.

Geografik ajralganlik muammosini hal etish uchun transport va raqamli infratuzilmaga investitsiyalar zarur. Bundan tashqari, barcha tuman markazlarida kamida 4G internet va raqamli davlat xizmatlarini ta'minlash "rivojlanish zonolari"dagi sanoat va logistika zonalarida tez internet, suv va elektr ta'minotini kafolatli qilish.

Janubiy Koreya tajribasini o'rgangan holda, ba'zi markaziy davlat idoralari va davlat universitetlarining filiallarini "rivojlanish zonolari"ga ko'chirish yoki kengaytirish ham muhim chora hisoblanadi. Bu qadamlar bir vaqtda bir nechta muammoni hal qiladi ya'ni ushbu hududlarda yuqori malakali ish o'rinlari yaratadi, mahalliy xizmatlar sektorini rivojlantiradi, malakali kadrlar hududiy yetishmovchiligini qisman teskari tomonga yo'naltiradi. Ayniqsa, IT, muhandislik va sog'liqni saqlash sohasidagi universitetlar filiallari prioritet bo'lishi kerak. Negaki bu sohalar kelajak uchun eng zaruriy va ommalashgan kasblar sirasiga kiradi.

Yirik kompaniyalar va davlat investitsiyalaridan tashqari, mahalliy kichik va o'rta biznesni rivojlantirish ham nomutanosiblikni kamaytirish uchun zarur. "Rivojlanish zonolari"dagi kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar, biznes-inkubatorlar va texnoparklar, mahalliy mahsulotlarga davlat xaridlari dasturi masalan, "Mahalliy ishlab chiqaruvchidan xarid qil" dasturi ya'ni mahalliy ishlab chiqaruvchilar qo'llab-quvvatlagan iste'molchilarga ham bonuslar yaratib berish, buning uchun esa ishlab chiqaruvchilar ustidan sifat nazoratini ham o'rnatish va jahon talablariga mos keladigan mahsulotlar

yaratishlari uchun sharoit yaratib berish kabi choralar amalga oshirilishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni yengillashtirishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqolada hududiy rivojlanish nomutanosibligining sabablari va uni kamaytirish chora-tadbirlari tahlil qilinib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O'zbekistonda hududiy nomutanosiblik real va jiddiy muammo bo'lib, Toshkent shahri va "rivojlanishi past" viloyatlar o'rtasidagi farq YaIM bo'yicha jon boshiga to'g'ri kelishi, xorijiy korxonalar ulushi ham sezilarli darajada farq qiladi. Bu farq faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy ta'lim, sog'liqni saqlash, imkoniyatlar sohasida ham yaqqol ko'rinadi.

Ikkinchidan, nomutanosiblikning asosiy sabablari bir-biri bilan bog'liq va o'z-o'zini kuchaytiruvchi xususiyatga ega investitsiyalar to'planishi inson kapitalini jalb qiladi, bu esa yanada ko'proq investitsiya va imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Rivojlanishi sust hududlarda esa aksincha jarayon malakali kadrlar ketadi, investitsiyalar kamayadi, iqtisodiy faollik pasayadi.

Uchinchidan, xalqaro tajriba YI Koheziya siyosati, Janubiy Koreya hududiy tenglashtirish siyosati shuni ko'rsatadiki, nomutanosiblikni kamaytirish mumkin, ammo bu o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Faol, izchil va yaxshi moliyalashtirilgan davlat siyosati zarur.

To'rtinchidan, O'zbekiston uchun eng muhim chora-tadbirlar "rivojlanish zonalari" kontseptsiyasini joriy etish va maqsadli investitsiya imtiyozlari berish, inson kapitalini rivojlantirish va mahalliy ish o'rinlari yaratish, transport va raqamli infratuzilmaga ustuvor investitsiyalar, davlat idoralarini ba'zi viloyatlarga ko'chirish, kuchli hududiy monitoring tizimi orqali siyosat samaradorligini doimiy nazorat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Myrdal, G. (1957). *Economic Theory and Under-developed Regions*. London: Duckworth.
2. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
3. Hirschman, A.O. (1958). *The Strategy of Economic Development*. New Haven: Yale University Press.
4. O'zbekiston Resapublikasi milliy statistika qo'mitasining rasmiy telegram sahifasidan olindi <https://t.me/uzstataxborot>
5. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan yaratildi
6. North, D. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

